

EKOLOGIK MAS'ULIYAT KIMDA?

*Nargiza Atayeva**Urganch davlat universiteti**Filologiya va san'at fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi va ekologik mas'uliyat davlat hamda jamiyat tomonidan birgalikda hal qilinishi muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, dunyodagi eng toza mamlakatlarning tajribalari va har bir insonning atrof-muhitni saqlashdagi roli haqida so'z boradi. Oxirida ekologik muammolarga doir taklif va yechimlar taqdim etiladi.

Global iqlim o'zgarishlari va atrof-muhitning ifloslanishi nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda jiddiy oqibatlariga olib kelmoqda. Buning natijasida tirik tabiat halokat yoqasiga kelib qolmoqda. Ushbu masala bo'yicha mas'uliyat haqida turli qarashlar mavjud: ayrimlar ekologik muammolarni hal qilishda siyosiy doiralarni bosh omil deb biladi, boshqalar esa bu jarayonda har bir insonning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Aslida, ekologik muammolar uchun kim mas'ul: davlat siyosati yoki jamiyatning o'zi?

Darhaqiqat, bugungi kunda atrof-muhit ayanchli ahvolga kelgan bo'lib, uni asrab qolish dolzarb muammolardan biriga aylanib qolgan. Dunyoda ko'plab ekologik muammolar mavjud. O'zbekistonning eng katta ekologik muammosi esa Orol dengizining qurib borishi hisoblanadi. Tan olish lozim, Orol dengizining ekologik falokat hududi nafaqat O'zbekiston, balki Qozog'iston, Turkmanistonni ham qamrab oladi. Bu kabi muammolar hajmi va ko'lamini kengayib borganidan Qizil Kitobga kiritiladigan o'simlik va hayvon turlari ham ortib bormoqda. Ayni vaqtda O'zbekistonda 301 xil o'simlik va 184 ta hayvon turi "O'zbekiston Qizil Kitobi"ga kiritilgan. Aynan ular mamlakatdagi ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim o'ringa ega. 2015-yil dekabr oyida BMT tomonidan "Parij iqlim kelishuvi" imzolangan bo'lib, uning asosiy vazifasi global harorat nazoratidir. Bundan tashqari, siyosiy vakillar sanoat chiqindilarini kamaytirish uchun qattiq nazorat o'rnatadi. Jumladan, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksning 91-moddasiga muvofiq bunday huquqbuzarliklar uchun jarima miqdori 669 ming so'mni tashkil etadi.

Mamlakatimizda ham atrof-muhit muammolarini o'rganish, ularni hal etish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini, atmosfera havosi va tabiiy resurslarni asrash hamda chiqindi muammolarini bartaraf etish va bu borada me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgani

fikrimiz dalilidir. Zero, mamlakatimizning bosh qonuni – yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek: **«Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi»**. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti agentliklari tizimi ham O'zbekistonning tabiiy zahiralarini barqaror rivojlanish maqsadida atrof-muhitdan foydalanishni samarali boshqarishga va uni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni birqator loyihalar orqali qo'llab-quvvatlab kelmoqda. E'tirof etish joiz aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston hukumati ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan qator strategik hujjatlarni ishlab chiqqan. 2000-2010-yillarga mo'ljallangan davrda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash davlat dasturi bu borada muhim amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadlar yo'lida ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi agentliklari va boshqa xalqaro tashkilotlar suv zahiralaridan unumli foydalanishda O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Ushbu hamkorliklar doirasida ilmiy jamoatchilikning ishtiroki bor, albatta. Xususan, "EKOSAN" xalqaro tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi va oliy ta'lim muassasalari hamkorligida konferensiyalar tashkil etilib kelinmoqda.

Fan-texnika sohasida ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlar va sanoat transportning tez o'sishi, aholining ko'payib borishi, urbanizatsiya hodisasi, shaharlarning kengaya borishi, shaharlar ta'sirining orta borishi, qishloq xo'jaligida kimyolashtirishning kuchli ta'siri va boshqa hollar, bir tomondan tabiiy resurslardan ko'proq foydalanishga olib kelsa, ikkinchi tomondan atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini ortishiga olib keladi. Natijada tabiiy resurslarning miqdori va sifatiga putur yeta boshladi. Bunday munosabatni bartaraf etish hozirgi kunda ekologiya oldiga qo'yilgan birdan-bir dolzarb muammodir. Bu muhim masalani hal etishning amaliy va ilmiy asosi -tabiatni muhofaza qilishdir.

O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan mamlakatimiz ekologiya sohasida keng ko'lamli islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha qator dolzarb vazifalar belgilab berildi. Butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxtlarni ekish va parvarish qilish sohasidagi boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilmiy yondashuvlar asosida hududlarning tuproq-iqlim va boshqa xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot, tahlillar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, 1992-yil 9-dekabrda Respublikamizda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda qanday mutaxassis tayyorlashdan qat'iy nazar, barcha o'rta va oliy o'quv yurtlarida ekologik ta'limning majburiyligi

belgilab qo'yildi. Chunki ekologik ta'lim va tarbiya yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda, insonning biosferaga bo'lgan yangicha munosabatlarni shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish hamda ularning natijadorligini oshirishda davlat idoralari va siyosatining o'ni kattadir. Zero davlat siyosati mamlakatdagi ekologik barqarorlikni saqlab qolish va aholiga munosib turmush tarzini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tarozining ikkinchi pallasi ham mavjud. Muvozanat hosil bo'lishi uchun ikki tomonning teng harakat qilishi kerak bo'ladi. Insonlar o'zlarining kundalik hayotlarida tabiatga nisbatan mas'uliyatli qarorlar qabul qilishlari lozim, ya'ni chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash, energiyani va suvni tejash, yashillikni ko'paytirish haqida.

Forbes jurnali Shveysariyani dunyodagi eng ekologik toza davlat deb topgan (100 balldan 95,5 ball). Reytingni tuzishda ekspertlar birinchi navbatda chiqindilarni boshqarish tizimining ishlashini baholagan. Shveysariyada bitta ham chiqindi poligoni qolmagan, barcha chiqindilar yangi tovarlar yoki energiyaga aylantiriladi. Shveysariya RSO (Hududiy ogohlantirish) tizimining asosiy prinsipi — “iflos qilgan odam to'laydi”. U barcha toifalarda birdek ishlaydi — yirik korporatsiyalardan tortib mamlakat fuqarolarigacha. Hamma joyda qog'oz, karton, shisha, metall, plastmassa va oziq-ovqat chiqindilari uchun alohida idishlar mavjud. Katta do'konlarda ko'pincha batareyalar, lampochkalar va plastik butilkalarni yig'ish punktlari bo'ladi. Ayniqsa, atrof-muhit haqida qayg'uradigan yoki shunchaki pulni tejashni xohlaydiganlar uchun yana ellik turdagi konteynerlar mavjud. “Chiqindi” politsiyasi RSO qoidalarini buzuvchilarni “ovlaydi”. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, ular noto'g'ri joyda yoki markirovkasiz qoldirilgan paketlar tarkibini tahlil qiladi va egasini osongina aniqlaydi. Bunday e'tiborsizlik uchun jarimalar “osmon” — qonunni buzganlik uchun 3000 frank, sud xarajatlari uchun yana 530 frank ketadi. Shu sababdan omadini sinab ko'rishga tayyor odamlar kam. Ajablanarlisi, toza muhit sog'lom va tinch hayotni ta'minlaydi va bu shveysariyaliklarning o'rtacha umr ko'rishlari davomiyli bilan tasdiqlanadi.

Demakki, atrof-muhitni toza tutish faqatgina davlatning emas, balki insonlarning vazifasini o'z vaqtida qilishi va bu boradagi mas'uliyatiga ham bog'liq ekan. Eng avvalo, tozalik insonning o'z salomatligi, nafas olayotgan havosining sofliqi uchun zarur. Shu bois yashil hududlarni ko'paytirish, ekologik yuksaltirishni targ'ib qilish kabi jamoaviy va individual tashabbuslar odamlarni o'zi yashayotgan zaminni himoya qilishga jalb etadi. “Birni kessang, o'nni ek” deb bejiz aytmagan otabobolarimiz. Qur'oni Karimning “A'rof” surasi, 7-oyatida Alloh taoloning: “Albatta, Jannatga faqat poklar kiradi”,- deyishi ham bejiz emas. Alloh nafaqat jisman, ruhan pok insonlarni sevadi, balki atrofimizniyam pok saqlashga buyuradi. Onalarimiz ham yoshligimizdan uyimizni pok saqlashga, toza saqlangan uy farishtali va barakatli

bo'lishini qizlarimizga o'rgatib kelganlar. Tabiat ham bizning uyimiz ekan, unga befarq qaray olmaymiz.

Orol dengizining suvdan noto'g'ri foydalanilishi natijasida qurib qolishi yoki daraxtlarning haddan ortiq kesilishi oqibatida o'rmonlarning yo'qolib ketayotgani kabi hodisalar odamlarning atrof-muhitga beparvoligi sababli yuzaga kelgan. “Har bir ulkan inshoot ham birgina g'ishtdan boshlanadi”,- degan edi amerikalik yozuvchi Napoleon Hill. Yonib qolgan birgina chiroqni o'chirish, yo'l chetidagi birgina axlatni olib qo'yish, ochiq qolgan jo'mrakni berkitish, turli xil yoqilg'i va gazlardan kamroq foydalanish, qushlarga va o'simliklarga qilingan g'amxo'rlik, bog' va daraxtzorlarni ko'paytirishga hissa qo'shish, nihollar ekish kabi kichik ko'ringan ishlar, aslida, insonning tabiat muhofazasi uchun qilgan katta yordamidir. Birgina odamning ekologiyani tozalash uchun qilgan harakati ko'rinmas bo'lishi mumkin, lekin hammamiz birlashsak, bir yoqadan bosh chiqarsak, har joyni toza saqlashimiz mumkin.

Barchamiz to'g'ri anglagan bir haqiqat borki, yashil sayyora – insoniyatning umumiy uyi, vatani va avlodlar ertasi. Behisob kislorod manbayi bo'lgan najotbaxsh yashillikning qurib bitishiga aslo yo'l qo'ymasligimiz, chuchuk suvni tejashimiz, zaharli chiqindilar tabiatni ayovsiz qirishiga jim qarab turmasligimiz shart. Buning uchun, avvalo, o'zimizda ekologik madaniyatni shakllantirish, ziyoli sifatida atrofimizdagi insonlarni ona tabiat sofliги yo'lida ergashtirish va birgalikda harakat qilishimiz asosiy insoniylik burchimizdir. Bugun biz “Dunyoni suv bossa, o'rdakka ne g'am” qabilida ish tutsak, kelajak avlod toza havo, ichimlik suvi yoki tabiiy resurslardan mahrum bo'ladi. “Nimani eksang, shuni o'rasan”,- deganlaridek, tabiatga nima bersak, shunga yarasha javob olamiz.

Yechim sifatida shuni aytishim mumkin:

- plastik chiqindilarni qayta ishlash tizimini kuchaytirish;
- daraxtlarning kesilishini cheklash;
- yangi nihollar ekishni kuchaytirish;
- atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kuchli jarima;
- havoni ifloslantiruvchi manbalar nazoratini kuchaytirish;
- haftada kamida 1kun “mashinalarsiz kun” sifatida yo'lga qo'yilishi;
- yoshlar o'rtasida ekologik savodxonlikni oshirish;
- qushlar va hayvonlarni ovlashni ma'lum darajada cheklash;
- tabiatni muhofaza qilish loyihalariga aholining jalb qilinishini rag'batlantirish va boshqalar.

“Qars ikki qo'ldan chiqadi”,- deganlaridek, davlat qonunlar, siyosatlar va iqtisodiy rag'batlar orqali ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, fuqarolar esa o'z harakatlari orqali. Yon-atrofni asrash—bu umumiy mas'uliyat va faqat birlikda qilingan harakatlar orqali biz kelajak uchun toza va sog'lom dunyo yaratishimiz mumkin.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/qiziqarli-malumatlar/ona-sayyoramizni-asraylik>
2. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>
3. Nigmatov Asqar “Ekologiyaning nazariy asoslari” . O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2013.(99-101-betlar)
4. <https://lex.uz/uz/docs/-5801444>
5. M.B.Usmonov “Ekologiya huquqi”. Toshkent-2014 .Ikkinchi nashri. (10-12-betlar)
6. <https://daryo.uz/2023/12/26/eng-ozoda-mamlakat-shveysariya-chiqindilardan-qanday-qilib-pul-ishlaydi/>